O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

12. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
13. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1).
14. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 419-422.
15. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 87-89.
16. Komilova,A.S. (2023). O ‘QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. *GOLDEN BRAIN*, *1*(31), 126-133.

PSIXOLOGIK TRENING HAQIDA TUSHUNCHA

Anorboyev Xayitboy Eshboy o‘g‘li,
Tog‘ayeva Shohzoda Uralovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
anorboyevhayitboy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologik trening va uning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsadi va vazifalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologiya, trening, barkamol shaxslar, tarbiya, maqsad, vazifa, predmet, trening tamoyillari, fidoiylik, Sheriklik, Xulq-atvor ob’ektivlashishi;

Jamiyatimizda sodir bo‘layotgan turli xil oilaviy, ish yuzasidan kelib chiqayotgan asabiylik, tanglik va stressdan olib chiqish uchun ushbu psixologik treninglar ishlab chiqilmoqda. Ayni kunda psixologiyaning muhim sohasi bo‘lgan, ta’limda esa innovatsion texnologiya sifatida keng qo‘llanilayotgan psixologik treningning qo‘llanilishi yoritilgan.

Zamonaviy psixologiya sohalarining muammolaridan biri har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish, malakalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda albatta, psixologik treningni o‘ziga xos o‘rni mavjud bo‘lib, hozirda mutaxassislar fanning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelmoqdalar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Trening – bu odamning muloqot uslubini o‘zgartirishga, uyg‘unlashtirishga, kerakli ko‘nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo‘lgan qarama-qarshiliklarni hal

qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o‘quv faoliyat turi deb ta’kidlasak ham xato bo‘lmaydi.

Trening – bu turli faoliyat sohalarida keng qo‘llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o‘qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat turiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o‘quv shakllardan biridir.

Trening tushunchasi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “train”, “training” ko‘plab ma’nolarga ya’ni: o‘qitmoq, tarbiyalamoq, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma’nolarga ega. Xuddi shunday ko‘p ma’nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi. Xususan, bu turli ijtimoiy faoliyat sohalariga shaxsni tayyorlashdan iborat bo‘lib, bunda shaxs yoki yaxlit guruhning muloqot sohasidagi bilimdonik darajasi maqsadga muvofiq tarzda maxsus mashqlar tizimi orqali rivojlantiriladi.[1]

Zamonaviy jamiyat o‘zining tez va chuqur o‘zgaruvchan tavsifiga ega bolib, bunday o‘zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ta’lim – tarbiya jarayonlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shunday ekan kishilarni muloqot jarayonida teran fikrlash, hozirjavoblik, ta’sirchanlik, samimiylik, empatiya, kirishuvchanlik, muzokaralar tashkil qiluvchanlik, raqobatbardoshlik kabilarni shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy – psixologik trening insonlar o‘rtasida sog‘lom munosabatlarga erishishni hosil qilish uchun ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga kirib bormoqda. Uning diagnostik tahlili, psixokarreksion imkoniyatlari kadrlar faoliyati: mutaxassislarni, psixolog, pedagog, psixaterapevtlar, korxona va tashkilot boshqaruvchilar, tadbirkorlarni ish faoliyatiga samarali ta’sirini ko‘rsatadi.

Avvalo, trening - bu odamning muloqot uslubini o‘zgartirishga, uyg‘unlashtirishga, kerakli ko‘nikmalarni singdirishga va boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladigan yoki ong osti xarakterga ega bo‘lgan

qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan yorqin, hissiy jihatdan jadal o‘quv faoliyat turi deb ta’kidlasak ham xato bo‘lmaydi.

Trening - bu turli faoliyat sohalarida keng qo‘llaniladigan juda mashhur va keng tarqalgan o‘qitish shaklidir. Kasbiy muvaffaqiyat ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat, shu bilan birga, trening texnologiyasi odamning kayfiyatini, muayyan faoliyat turiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini rivojlantirish zarurligini anglashga yordam beradigan o‘quv shakllardan biridir.

Hozirgi davrda insonlarni eng tabiiy bo‘lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo‘lish, o‘zgalarga samarali ta’sir eta olishga intilishining kuchayishi, bo‘lajak kadrlarni kelgusi faoliyatlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash, shuningdek, rahbar kadrlarni samarali boshqarish usuliga o‘rgatish kabi masalalarni echimini topish borasidagi ishlardan biri - bu ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohasi bo‘lgan psixologik treninglarni tashkil etishdir.

Psixologik trening avvalo shaxs yoki gruhni samarali muloqot malakalariga o‘rgatish va ulardagi komminakativ bilimdonlikni oshirish usullarini va ularni amaliyotga tadbiq etish chora tadbirlarini ishlab chiqadi. Inson o‘z hayotida shaxsiy tajriba, ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni ortirib borishi jarayonida hosil bo‘ladigan,

bevosita shakllanadigan ijtimoiy bilimdonlik yoki kommunikativ sovodxonlikdan farqli psixologiya fanida ushbu jarayonlarni maqsadli shakllantirish, shaxs va yaxlit guruh faoliyatiga talluqli ijtimoiy fazilatlarni zudlik bilan shakllantirish uchun qo‘llaniladigan uslublar majmui mavjud. Ularni qisqacha qilib ijtimoiy psixologik trening (IPT) yoki psixologik trening deb ataladi.

Treningni maqsad va vazifalari. Ko‘plab soha mualliflari ijtimoiy-psixologik treninglarning etakchi maqsadi sifatida shaxslararo munosabatlarda aloqa malakasini shakllantirish omili ekanligini ta’kidlaydilar. Shaxs qachonki, jamiyatda, boshqa odamlar bilan muloqot va o‘zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Insonning kommunikativ qobiliyatlari uning rivojlanishining shartidir va bu rivojlanish natijasi hamdir. Keng ma'noda shaxsning kommunikativ malakasini oshirmay, ijtimoiy munosabatlarini o‘zgartirmay turib, shuningdek, ijtimoiy dunyoga va o‘ziga bo‘lgan umumiy munosabatini qayta ko‘rib chiqmasdan insonning shaxsiy fazilatlari majmuasini, shakllantirib bo‘lmaydi. Ammo, hozirgi vaqtda ijtimoiy-psixologik treninglarning faqat aloqa vositasi ekanligi bilan bog‘lash to‘g‘ri kelmaydi. Ijtimoiy psixologik trening nafaqat shaxslararo munosabatlarning shakllantirish omili, balki shaxsning o‘z-o-‘zini adekvat baholashi, har qanday vaziyatlarda o‘zini nazoratga olish imkoniyatlarni yaratib berishi bilan boshqa amaliy mashg‘ulotlardan quyidagi maqsadlar orqali farqlanadi.

Jumladan:

-shaxsda muloqotchanlik ko‘nikmalarini hosil qilish;

-hayotdagi qarama – qarshiliklarni to‘g‘ri tushuna olish va tahlil qilishga o‘rgatish;

-shaxsning ichki holati (ruhiyatini) o‘zgartirishga erishish;

-shaxsning kamoloti uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni hosil qilish;

-kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish konikmalarini hosil qilish kabi.

Treningni asosiy vazifalari:

1.Shaxsning ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish.

2. Muloqot faoliyatida namoyon bo‘ladigan yaqqol bilimlar, malakalar , ko‘nikmalar va odatlarni hosil qilish.

3. Samarali muloqatda namoyon bo‘ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, noadekvatlarni korreksiyalash.


4. O‘zini - o‘zi to‘laroq anglash, bilim hamda o‘zgalarga nisbatan to‘gri munosabatlarni shakllantirish qobilyatini o‘stirish.

5. Umuman shaxsning ijtimoiy munosabatlarini faoliyatga , undagi pedogogik va ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan moslashishni ta'minlash va muvofiqlashtirish kabi.

Ayniqsa, bugungi kunda oilaviy shaxslararo munosabatlarda, ma’lum bir faoliyat turlari jarayonida kishilar o‘rtasida hissiy – emotsional zo‘riqish holatlarini o‘sib borayotganligini guvohi bo‘lamiz. Bu muammolarni bartaraf etishda psixologik treningning imkoniyatlarini alohida ta’kidlashimiz maqsadga muvofiqdir. Stress va salbiy emotsiyalarni boshqarish bo‘yicha treninglarni tashkil qilish va o‘tkazish bugungi kunning talablaridan hisoblanadi va quyidagi amaliy vazifalarni ham qamrab oladi:

- mazkur treninglarni dasturlar asosida yuqori saviyada o‘tkazish shart-sharoitlarini yaratish; o‘tkazilinadigan treninglarni samaradorligini oshirish uchun mutaxassislarni bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; negativ emotsiya va hissiyotlarni konstruktiv namoyon qilish ko‘nikmalarini shakllantirish usullarini takomillashtirish; shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarga oid manbalarni zamonaviy takomillashtirilgan holda qayta ishlab chiqish va yangilarini milliy qadriyatlarga asoslangan holda yaratish kabi.

Ijtimoiy psixologik treningni maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, trening mashg‘uloti uchun qo‘yiladigan tamoyillar quydagilardan iboratdir:



Ijodiylik tamoyili.

Sheriklik (Sub’ekt-sub’ektlik) muloqoti tamoyili.

1.Faollik tamoyili.Bu tamoyil ko‘proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g‘oyaga bo‘ysunadi: Inson eshitganlarining 10% ni, ko‘rganlarining 50% ni, aytib berganlarining 70% ni va nihoyat o‘zi qilganlarining 90% ni o‘zlashtiradi. Trening guruhi azolaridan ijtimoiy faollik talab etiladi, chunki guruh ag‘zolari vaziyatlarda o‘zgalardagi mavjud bilim va malakalardan foydalanib guruh ag‘zolarining harakatlari hamda vaziyatning talabiga ko‘ra aniq xulq- atvor shakllarini namoyon qilishlariga to‘g‘ri keladi.

2. Ijodiylik tamoyili.Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo‘lgan, kashf etib ulgurilgan g‘oyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o‘zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar. Trening guruhi ag‘zolarida doimiy izlanuvchanlik, muayyan joyda vaziyat hamda rollarni tahlil qilgan holda uning mohiyatini tushinish u yoki bu rolga kirishi lozim bo‘ladi, chunki trening tafakkur va qarashlarning egiluvchan hamda vaziyatlarga mos bolishini taqozo etadi.

3. Xulq-atvor ob’ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili. Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impul’sivlikdan ob’ektivlik darajasiga o‘tadi va trening davomida o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor obg‘ektivligining

universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta’minlash trenerning ma’suliyatidir. Ijtimoiy psixologik trening mashg‘ulotlarida namoyon bo‘ladigan xulq-atvor shaklarining ob’ektivlashuvi, yag‘ni guruh ag‘zolarining munosabati ro‘lining talablaridan kelib chiqqan holda har bir ishtirokchi ayni shu rolga mos harakatni real xulqda mustahkamlashi va boshqalar ta’sirida uni ongli ravishda qabul qilishi zarur.

4. Sheriklik (Sub’ekt-sub’ektlik) muloqoti tamoyili.Sheriklik, yoki sub’ekt-sub’ektlik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg‘ulari, qayg‘ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr qimmati deb tan olinadi. Har bir mashg‘ulot va muloqot sheriklarining maksimal tarzda bir birlarini hurmat qilishlariga asoslanmog‘i kerakki, natijada shaxs bunday mashg‘ulotlardan keyin begona fikrlarni ham qadrlashga, ular bilan hisoblashishga va tinglashga mos tarzda o‘z fikr mulohazalarini bayon etishga o‘rganadi. Ushbuning qo‘llanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Psixologik trening tushunchasi va treningni o‘ziga xos jihatlari. Psixologik treningning tub ma'nosi – insoniy munosabatlarga o‘rgatishdan iboratdir. Psixologiya sohasi keyingi yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo‘nalishlari sifatida trening tarmog‘i ham rivojlandi. Fan sifatida rivojlanayotgan psoxologik trening va uni o ‘tkazish uslubiyoti mazmun jihatdan ta’lim va tarbiya sohasida treninglarning qanday tartibda tashkil etilishi va o‘tkazilishi borasidagi masalalami yoritishga ham bag‘ishlanadi.[2]

Psixologik trening haqida ko‘plab olimlarning nazariyalri mavjud:

Psixologiya tarixida trening o‘qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta’rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: “Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko‘nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir”, shuningdek, “Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir”.

G.A.Kovalev ijtimoiy-psixologik treningni ijtimoiy-didaktik faol yo‘nalishdir deb hisoblaydi. B.D.Parigin esa guruhiy maslahatlar metodlari haqida shunday deydi: Ulardan guruhiy konsul’tatsiya metodlarini faol o‘qitish uchun foydalaniladi. Hayotiy ko‘nikmalarni, muloqotchanlik sohasida bilim berishni, kasbiy faoliyat sohasida maslahatlardan tortib to yangi ijtimoiy hayotdagi rollarni, ‘Men’ konseptsiyasini korreksiya qilishni, o‘z-o‘ziga baho berish tizimini kuchayishini ta’minlaydi.

P.O. Gorboshina, “Trening – bu shaxsni o‘zgartirishga qaratilgan hissiyotlarga boy bo‘lgan mashg‘ulot turidir” deb ta’kidlab, trener faoliyatini huddi olmosni qayta ishlab unga jilo berish bilan bog‘liq o‘ta nozik zargarning ma’suliyatli faoliyat turiga taqqoslaydi.2

XX asrning 30-yillaridan birinchi ilmiy psixologik xulosalarni qilgan shvetsariyalik psixolog Jan Piaje tadqiqotlarida bolaning ijtimoiylashuv jarayonini bahs va munozara usuli orqali o‘rganar ekan, bolalarda egoistlik mavqeini susayishi, o‘zini xatti – harakati va o‘zgalar mavqeini anglash bilan bir qatorda o‘zini o‘zgalar o‘rniga qo‘ya olish qobiliyatini rivojlantirishini aniqlagan.

Nemis psixologi Kurt Levinning fikricha, guruhdagi munozara har bir shaxsning ijtimoiy ustanovkalari, qarashlarini, har bir shaxsning guruhiy faoliyatiga

nisbatan motivatsiyasini oshirib, o‘z mavqei va o‘zgalarni tushinish, his qilish ehtiyojining oshishini ta’kidlaydi.

S. I. Makshanovning psixologik trening nazariyasiga kelsak, shaxsga nisbatan qaratilgan “rivojlanish” tushunchasidan farqli o‘laroq, treningga shaxs xususiyatlarini “ataylab o‘zgartirish” atamasini kiritgan. Ushbu tushuncha “rivojlanish” tushunchasiga nisbatan kengroq ma’noni anglatib, unda o‘zgarishlarning maqsadi, jarayoni va natijalarini etarlicha aks ettiruvchi ongli xususiyatlarini ta'kidlaydi. “Ataylab o‘zgarish” tushunchasi rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlarga nisbatan qo‘llash imkonini beradi, masalan, ataylab o‘zgarish natijasida insonning biror narsaga munosabati o‘zgarganda, bu, albatta, o‘zgarish, lekin rivojlanish hisoblanmasligini keltirib o‘tadi. Ataylab o‘zgartirish rivojlanishni ham, korreksiyani ham o‘z ichiga oladi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.
5. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: SHark.-2000.- 112 b.
6. Karimova V.M., Sunnatova R. «Mustaqil fikrlash» o‘quv qo‘llanmasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uslubiyoti.-T.: SHark, 2000.- 16 b.
7. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. S angl.-SPb.: «Piter»,1999 688 s.
8. Metodы effektivnogo obucheniya vzroslыx. Uchebno-metodicheskoe posobiya. (Avtorskiy kollektiv) - Moskva - Berlin, 1998 - 124 s.
9. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. / Pod. red. A. Suxova i A.Dergacha.- M, 1998 - 688 s.
10. CHaldini R. Psixologiya vliyaniya. - SPb.: «Piter», 2000,-272 s.
11. “Psixologiya” Uch.T-2. “Prospekt”. Moskva - 2004.
12. Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiey A.A.Radugina. Izd. “Sentr” 2003.

QIZ VA O‘G‘IL BOLALARDA LIDERLIK SHAKLLANISHI MUAMMOSINING MAMLAKATIMIZ PSIXOLOG OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILGANLIGI

Boyqulova Mohinur Ravshan qizi,
Otaboyeva Shaxnozabonu
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
mohinurravshanovna96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb bo‘lib keladigan rahbarlik, liderlik sfatlarini mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilishini yoritib berishga qaratilgan. Shuningdek, muvaffaqiyatli liderning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda ularning majburiyatlarini tahlil qiladi.